

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va turmush farovonligini oshirish masalalari

Sohiba Shermamatovna Babakuliyeva
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya: O'zbekistonda yashovchi ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan xotin-qizlarni bandligini ta'minlash, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyatlarini namoyish etishda shart-sharoit yaratish, ayollarning jamiyat hayotida tutgan rolini oshirish, onalik va bolalikni har tomonlama himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlash, shuningdek eng asosiysi ularning haq-huquqlarini paymon bo'lmasligi uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan xotin-qizlarni bo'sh ish joylari bilan ta'minlash, ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va shu orqali turmush tarzini yaxshilashga imkoniyat yaratib berish, hozirgi kunda qiynayotgan dolzarb masalalardan biridir. Bunday ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qancha qarorlar va dasturlar ishlab chiqilgan hamda qator takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ayollar, ijtimoiy himoya, bandlik, onalik va bolalik, xotin-qizlar huquqlari

Issues of ensuring employment and improving the well-being of women in need of social protection

Sahiba Shermamatovna Babakuliyeva
Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract: Extensive work is being carried out to ensure employment of women in need of social protection living in Uzbekistan, to create conditions for their demonstration of their abilities in various fields and sectors, to increase the role of women in society, to comprehensively protect and support motherhood and childhood, and most importantly, to ensure that their rights are not violated. Also, providing women in need of social assistance with vacant jobs, to reveal their abilities and thereby create an opportunity to improve their lifestyle, is one of the pressing issues that we are currently facing. In order to comprehensively support such women, a number of resolutions and programs have been developed and a number of proposals have been made.

Keywords: women, social protection, employment, motherhood and childhood, women's rights

KIRISH

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan xotin-qizlar masalalariga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat so'nggi yillarda xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalash, ularni kasb-hunarga o'qitib o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishga zamin yaratish, shuningdek ishlash istagida bo'lgan ayollarning bandligini ta'minlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada ko'plab islohotlar va qarorlar qabul qilindi hamda shu qarorlarga muvofiq ancha ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda rivojlangan har bir mamlakatda ayollarning shaxsiy huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu jumladan O'zbekistonda ham xotin-qizlarning shaxsiy huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida jadal islohatlar olib borilmoqda. Milliy qomusimiz bo'lmish Konstitutsiyada ham barcha fuqarolarning teng huquqli ekanligi belgilab qo'yilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, konstitutsiyaning aynan 18,46,63,64,65,66-moddalari bevosita ayollar huquqlarining kafolatini mustahkamlashga qaratirilganligi va xalqaro hujjatlarda bo'lgani kabi, ichki qonunchilikda ham jins belgisi bo'yicha kamsitmaslik to'g'risidagi qoida birinchi o'ringa chiqarilganligini ta'kidlash o'rinlidir.

Shuningdek xotin-qizlar mehnatini muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida (13-bob, 211-233-moddalari hamda 14-bob, 224-238-moddalarda) o'z aksini topgan. Bu joriy etilayotgan qarorlar va islohatlar xotin-qizlarning shaxs sifatida mustaqil ravishda ishlashlariga keng imkoniyat yaratib beradi.

Shuningdek muhtaram prezidentimiz tomonidan 1998-yilni "Oila yili", 1999-yilni "Ayollar yili", 2001-yilni "Ona va bola yili", 2012-yilni "Mustahkam oila yili", 2014- yilni "Sog'lom bola yili", 2016-yilni "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilinishi ham ayollarga bo'lgan e'tibor va hurmatni bildiradi.

Bundan tashqari muhtaram yurtboshimiz tomonidan 2019-yil mart oyida beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Xususan, ushbu davlat dasturining beshinchi tashabbusi ham "Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash" bo'yicha ayollar bandligini ta'minlash dasturi loyihasi tayyorlangan va bu borada yirik loyihalar tayyorlanib amalga tadbqiq etildi.

Jumladan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan. Xotin-qizlarga berilayotgan bunday imkoniyatlar albatta ularga kuch va ishonch hamda yashashga bo'lgan ishtiyoqlarini kuchaytiradi. Ayol kishi o'zini baxtli his qilsa o'z sevgan sohasida ishlasa albatta oilasi ham tinch bo'ladi. Har bir oila jamiyatning bir negizi hisoblanadi shunday ekan barcha oilalarda tinchlik va farovonlik bo'lsagina yurtimiz ham tinch va obod bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar islohotlarning muhim omili hisoblanadi. Har bir ayol o'z sevgan kasbi bilan shug'ullanishi va o'sha kasbning yetuk mutaxassisi bo'lishi o'z navbatida oilaga byujetiga ham katta yordam beradi. Yildan yilga ayollar mehnatiga qaratilayotgan e'tibor, ta'lim olishlari uchun berilayotgan imtiyozlar hamda mehnat qilishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va yengilliklar hamda ularni mehnatini muhofaza qilish bo'yicha bir qancha hujjatlarning ijrosi ta'minlanayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi.
2. Tursunov Y., "Mehnat huquqi", O'quv qo'llanmasi. T., «Moliya», 2009 yil.
3. M.Seyitnazarov. O'zbekiston respublikasining ayollarga oid davlat siyosati va uning huquqiy asoslari-N.:2016 y